

## ASALARICHILIK: HAM DARMON, HAM DAROMAD

Mirzaxmedov Muhammadjon Fazliddin o'g'li

*Namangan viloyati To'raqo'rg'on tumani*

*7-o'rta ta'lif maktabi biologiya fani o'qituvchisi*

Bugungi kunda viloyat miqyosida asalarichilik sub'ektlari soni 2000 tadan ortib, 130 ming donadan ziyod qutida asalari oilasi parvarishlanyapti. Viloyatda yiliga jami 2 ming tonnadan ortiq asal mahsulotlari ishlab chiqarilmoqda. Xorijga asalari oilasi eksporti esa yiliga 70 ming donani tashkil etmoqda. Bag'dod tumanida ham ko'plab oilalar asalarichilik bilan shug'ullanib, yaxshi daromadga ega bo'lmoqda.

Asalarining normal oilasi 50-80 ming ishchi asalari, yuzlarcha erkak asalari va bitta ona asalaridan tashkil topadi.

Asalarichilikda shu paytgacha hali inson tomonidan birorta ham asalari zotlari yaratilmagan. Shunga qaramasdan har bir hududning tabiiy-iqlim sharoitiga moslashgan asalari zotlari bor.

Yurtimizda ko'p asal beradigan mahalliy asalari zoti bilan birga «O'rta rus», «Kulrang Kavkaz tog' asalarisi», «Karpat» «Italiya» va «Krainka» asalari zotlari tarqalgan.

Asalari oilasining asal berish miqdori va sifati turli omillarga bog'liq. Umuman bitta asalari oilasi uy sharoitida o'rtacha 15–20 kg. gacha asal bera oladi. Agar asalari oilasi to'g'ri parvarishlansa undan ham ko'p asal olish mumkin. Bular albatta, ularni serosal o'simliklar joylashgan joyga ko'chirib turishga va asalari zotiga bog'liqdir.

Xullas, uy sharoitida 10 tagacha asalari oilasini boqish bemalol o'zini oqlaydi. Xo'sh, uy sharoitida asalari oilasini boqishni qanday yo'lga qo'yish mumkin? Agar hovlingizda yetarli sharoit bo'lsa, hech ikkilanmay, bu ishni boshlayverishingiz mumkin. Buning uchun eng avvalo yaxshi asalari zotlarini tanlab, xarid qiling.

Agar, siz asalari oilasini xarid qilmoqchi bo'lsangiz, avvalo sog'lomligiga e'tibor bering. O'zingizga yoqib qolgan asalari oilasiga chetdan turib razm soling, asalarilarni uyadan uchish va qaytib kelishiga e'tibor bering. Ularning uchish parvozi bir tekis bo'lishi kerak. Negaki, ba'zi asalari oilalarida asalari parvozi ancha sust bo'ladi. Bu asalari oilalarida ona asalari keksa va kammahsulligidan darak beradi.

Uy sharoitida asalari boqishni tashkil qilganingizda joy tanlashga ham alohida e'tibor bering. Buning uchun asalari qutilarini joylashtirishda quyoshli joy tanlang, asalari uchadigan tuynuklarni janubga qaratib qo'ying. Qutilar ostida qoziqchalar bo'lishi lozim, aks holda har xil zararkunandalar uyaga kirib, asalarilarga zarar yetkazishi mumkin. Bundan tashqari, maxsus idishlarga suvdonlar qo'yish lozim. Bu esa asalarilarni suv izlab boshqa iflos suvlardan ichishining oldini oladi.

Asalari oilasini parvarish paytida daladan yaxshigina shira kelayotgan bo'lsa, yangi mumpardali ramkalarni bir kunda to'qiydi. Bunday davrda uyadagi ramkalarni ustki qismi oqaradi, hatto uyadagi ramkalar ustidagi surp-matoni ham mum bilan yopishtirib tashlaydi. Bu asal tortish davri boshlanishini bildiradi.

Asal tortish mavsumi yil davomida 2–3 marotaba, ayrim yillarda esa undan ham ko'p bo'lishi mumkin. Asal tortish mavsumi tugagach, asalari oilasi qishlovga tayyorlanadi. Buning uchun asalari oilalarida ko'proq yosh asalarilar bo'lishini ta'minlash lozim. Har bir asalari oilasiga qishlov uchun uning kuchiga qarab 10–15 kg gacha sifatli ozuqa-asal qoldirish maqsadga muvofiqdir.

Asalari oilasini tashqi harorat salqin joyda 14 oS dan past bo'limganda, tekshirishga kirishiladi. Agar umumiy ahvoli qoniqarli bo'lsa, u holda to'liq tekshirish ishlari havo harorati 16–18 oS bo'lguncha qoldiriladi.

Asalari oilasini tekshirayotgan vaqtida asalarichining qo'li toza, oq yoki qora xalat hamda qo'lansa hid kelmaydigan (atir, upa, piyoz, sarimsoqpiyoz, benzin, kerosin, ter hidi) kiyimlarni kiyishi kerak, shunda asalarilar kam bezvtalanadi va chaqishga harakat qilmaydi.

Tekshirishda tutatgich yordamida asalari uyasiga asalari kiradigan tuyrukcha orqali 2–3 marta tutun tutatilada, oradan 1–1,5 daqiqa o'tgach uya qopqog'i ochilib, ustki yopqichning bir chekkasini qaytarib, sekin-asta ramkalarni asalarichi iskanasida sug'urib olib, tekshirishga kirishiladi. Oilaning ichki hajmi kengaytirilayotganda yuzaki tekshiriladi va chekkadagi ramkalarni bir oz chetga surib, ularning o'rniiga kengaytirishga mo'ljallangan ramkalar qo'yiladi. Agar tabiatdan shira kelayotgan bo'lsa, u holda asalari uyasining kerakli joylariga mumpardali ramkalar beriladi.

Asalari oilasining rivojlanishiga asosan varroatoz, akarapidoz, amerika va yevropa chirish, nozematoz, askosferoz kasalliklari va pestitsidlar bilan zaharlanish va boshqa bir necha xil infektsion va invozion kasalliklar halal beradi. Varroatoz kasalligi asalarilarning eng xavfli kasalligi bo'lib, kanalar ishchi, erkak va yosh asalari nasli tanasida parazitlik qilib yashaydi. Agar yil davomida varroatozga qarshi kurashilmasa, asalari oilasi nobud bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, har xil asalarixo'r qushlar ham asalarilarga jiddiy zarar yetkazishi mumkin.

Asalari kasalliklarining oldini olishning asosiy yo'llaridan biri – baquvvat oilalarni saqlash, zooveterinariya qoidalariga asosan har yili asalari oilalarini veterinariya vrachi ko'rigidan o'tkazish va asalarilarga bahorda antibiotik dorilar qo'shilgan qo'shimcha oziqalar berishdir. Asalarilardagi ko'pgina kasalliklar deyarli bir xil belgiga ega. Shuning uchun ham faqat mutaxassislargina kasallikni aniqlay olishlari va unga qarshi muvaffaqiyatli davolash tadbirlarini qo'llashlari mumkin. Kasallikning dastlabki belgilari paydo bo'lishi bilanoq, asalarilardan namuna olib, yaqin oradagi veterinariya laboratoriyalariга murojaat qilish maqsadga muvofiqdir.

#### REFERENCES:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 16 oktyabrdagi "Respublikamizda asalarichilik tarmog'ini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi – 3327 sonli qarori.
2. Isamuhamedov A.I. Nikadamboev X.K. Asalarichilikni rivojlantirish asoslari. Toshkent. «Sharq» nashriyoti, 2013.

3. Тураев О.С. Технология содержание пчелиных семей в хлопкосиющей зоне Бухарского области. Автореферат канд. диссертации. 2006.